

UDK 914-917

ZARAFSHON IQTISODIY RAYONIDAGI ERKIN IQTISODIY ZONALAR

Amanov Allabergan Kutlimuratovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Geografiya kafedrası katta o‘qituvchisi
Nazarov Didar Maxsat o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Geografiya yo‘nalishi 2 – bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zarafshon iqtisodiy rayonidagi “Navoiy”, “Urgut”, “Gijdivon” va “Buxoro-Agro” erkin iqtisodiy zonalari (keyingi o‘rinlarda EIZ) to‘g‘risida fikr yuritiladi. EIZlarning iqtisodiy rayon iqtisodiyotidagi o‘rnini ochib berishda iqtisodiy-geografik tahlil, statik ma‘lumotlar ustida ishlash, kartografik kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi va kerakli tavsiya hamda takliflar berib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: agro-erkin iqtisodiy zona, gidroponik issiqxonalar, eksport, erkin iqtisodiy zona, iqtisodiy rayon, import, investitsiya, xorijiy investor.

СВОБОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ В ЗАРАФШАНСКОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЙОНЕ

Аманов Аллаберган Кутлимуратович
Старший преподаватель кафедры географии
Ургенчский государственный университет
имени Абу Райхана Аль-Бируни
Назаров Дидар Махсад угли
Студент 2-курса географии
Ургенчский государственный университет
имени Абу Райхана Аль-Бируни

Аннотация: В данной статье рассматриваются свободные экономические зоны (далее – СЭЗ) «Навои», «Ургут», «Гиждивон» и «Бухара-Агро» в Зарафшанском экономическом районе. Для выявления места СЭЗ в экономике экономического района были использованы такие

методы исследования, как экономико-географический анализ, работа на статических данных, картографический, а также даны необходимые рекомендации и предложения.

Ключевые слова: аграрная свободная экономическая зона, гидропонные теплицы, экспорт, свободная экономическая зона, экономический район, импорт, инвестиции, иностранный инвестор.

FREE ECONOMIC ZONES IN ZARAFSHAN ECONOMIC DISTRICT

Amanov Allabergan Kutlimuratovich
Senior Lecturer, Department of Geography
Urgench State University
named after Abu Rayhan Al-Biruni
Nazarov Didar Maxsat o'g'li
2nd year geography student
Urgench State University
named after Abu Rayhan Al-Biruni

Abstract: This article examines the free economic zones (hereinafter referred to as FEZ) "Navoi", "Urgut", "Gijdivon" and "Bukhara-Agro" in the Zarafshan economic region. To identify the place of the FEZ in the economy of the economic region, such research methods as economic and geographical analysis, work on static data, cartographic were used, and the necessary recommendations and proposals were given.

Keywords: agrarian free economic zone, hydroponic greenhouses, export, free economic zone, economic region, import, investment, foreign investor.

KIRISH. O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan Zarafshon iqtisodiy rayoni - Zarafshon daryosining o'rta va quyi qismidagi Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari o'z ichiga oladi. Mazkur iqtisodiy rayonning umumiy yer maydoni 168,1 ming km.kv, aholisi 7,4 mln. kishidan ortiq. Ushbu iqtisodiy rayon davlatimizda o'zining iqtisodiy mavqeiga ega, va u mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 18,2% ini, sanoatning 19,1% ini va qishloq xo'jaligining 27% ini beradi [4].

Aynan ushbu iqtisodiy rayonda EIZlarni tashkil etishdan asosiy maqsad, uning tarkibiga kiruvchi viloyatlarni iqtisodiy rivojlanishini hamda, rayonda istiqomat qiladigan aholining bandligini ta'minlash, ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash uchun chet el va mahalliy sarmoyalarni jalb qilishdir.

Xo'sh EIZ nima? **Erkin iqtisodiy zona** –bu biznes va savdo qonunlari mamlakatning qolgan qismidan farq qiladigan hudud. EIZlar mamlakatning milliy chegarasida joylashgan bo'lib, ularning maqsadlari savdo balansini oshirish, aholini ish bilan ta'minlash, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratishdan iborat bo'lgan samarali boshqaruvni o'z ichiga oladi. Mazkur iqtisodiy hududlarida korxonlarni tashkil etishga rag'batlantirish uchun moliyaviy siyosat joriy etiladi.

EIZlarning shakllanishida quyidagi omillar alohida o'rin tutadi:

-investor uchun hududning iqtisodiygeografik holati juda qulay bo'lishi shart;

-kamida mintaqaviy ahamiyat kasb etuvchi magistral yo'llarning kesishgan joylari bo'lishi lozim;

-dengiz va daryo portlariga yaqin bo'lishi kerak;

-aeroportlar xalqaro maqomga ega bo'lishlari lozim.

Shu bilan birga bir qator bojxona va soliq imtiyozlari ham EIZlarining jozibadorligini oshiruvchi iqtisodiy omillar sanaladi, shuningdek arzon va malakali ishchi kuchi ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillardan sanaladi.

Zarafshon iqtisodiy rayonida “Navoiy”, “Urgut”, “Gijdivon” va “Buxoro-Agro” EIZlari tashkil qilingan. Ularning dastlabkisi Samarqand shahrida tashkil qilingan bo'lib, turli huquqiy va iqtisodiy sabablarga ko'ra o'z faoliyatini yurita olmay tugatilgan.

Keyinchalik hozirda faoliyat yuritayotgan, dastlabki “Navoiy” erkin industrial iqtisodiy zonasi Navoiy viloyatining Karmana tumanida intermodal xab sifatida, ma'lum davrdan keyin Samarqand viloyatining Urgut tumani va Buxoro viloyatning G'ijduvon tumanida, mos ravishda “Urgut” va “G'ujduvon” EIZlari,

shuningdek Buxoro viloyatining bir yo'la quyida nomi ko'rsatilgan Buxoro, Jondor, Kogon, Peshku va Romitan tumanlar hududida jami 3000 ga maydonga ega bo'lgan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan "Buxoro-agro" EIZsi tashkil qilindi.


1-jadval

Zarafshon iqtisodiy rayonida tashkil qilingan erkin iqtisodiy zonalar.

T/r	EIZ nomi	Tashkil qilingan vaqti	Ajratilgan maydon	Joylashgan mintaqasi
1	"Navoiy" EIZsi	2 dekabr 2008 yil	645 ga	Navoiy viloyati
2	"Urgut" EIZsi	12 yanvar 2017 yil	1902,5 ga	Samarqand viloyati
3	"G'ijduvon" EIZsi	12 yanvar 2017 yil	883 ga	Buxoro viloyati
4	"Buxoro-agro" EIZsi	2018 yil	3000 ga	Buxoro viloyati

Jadval internet ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Zarafshon iqtisodiy rayonidagi balkim mamlakatimizda birinchi tashkil etilgan, to'ng'ich EIZ "Navoiy" erkin industrial iqtisodiy zonasidir. "Navoiy" EIZsi- 2008yilda Navoiy viloyatining Karmana tumanida tashkil topgan. Bugungi kunda bu eng rivojlabo'ngan bo'lib, uning maydoni 645 gektarni tashkil etadi, yuksak muhandislik infratuzilmasi va qulay logistika ega. EIZ rezidentlarga misli ko'rilmagan bojxona va soliq imtiyozlari, shuningdek, har qanday tartibni iloji boricha soddalashtirish imkonini taqdim etadi.



1-rasm. “Navoiy” EIZsi sxemasi.[1]

Navoiy EIZ geografik joylashuvi jihatidan boy xom-ashyo va resurs bazasida joylashganligi bilan birga, arzon mehnat resurslarining mavjudligi kabi bir qator qulayliklar uning yanada jozibadorligini ta’minlaydi.

EIZ hududida faoliyat yuritishning quyidagi qulayliklari mavjud:

- respublikamizda iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning mavjudligi;
- o’zida 100 turdagi mineral homashyolarni mujassam etgan foydali zaxiralarning ko’pligi;
- energetika (gaz, elektroenergiya, texnik va ichimlik suvi, kanalizatsiya) va mehnat resurslaridan foydalana olish;
- mo’tadil iqlim sharoitining mavjudligi.




2-rasm. “Navoiy” EIZsi intermodal xab sifatidagi karta sxemasi.[1]

2017 yil 12 yanvarida mamlakatimizning Buxoro, Farg’ona, Samarqand va Xorazm viloyatlarida “G’ijduvon”, “Qo’qon”, “Urgut” va “Xazorasp” EIZlari tashkil qilindi.

Samarqand viloyatida tashkil qilingan va juda tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan “Urgut” EIZsini “Chegarasiz iqtisodiy zona” deb ham nomlaydilar, negaki u boshqa EIZlardan farqli ravishda respublikamizning boshqa ma’muriy birliklarida ham o’z filiallariga ega bo’lmoqda.

2021 yilning 4 noyabrdagi Urgut erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror bilan Samarqand viloyatining barcha tuman (shahar)larida va Surxondaryo viloyatining Denov tumanida Urgut EIZ filiallari tashkil qilingan[6].

Samarqand viloyatidagi Urgut erkin iqtisodiy zonasi Qoraqalpog'istonning Beruniy tumanidagi 22,3 gektar yer maydoni hamda Qashqadaryoning Kitob tumanidagi 37,4 gektar yer maydonlari hisobiga kengaytirilmoqda. Ya'ni Beruniy va Kitob tumanlarida Urgut EIZning filiallari tashkil qilinmoqda.



3-rasm. "Urgut" EIZsining viloyatlardagi massivlari karta sxemasi.[5]

Tashqi bozorda talab katta bo'lgan, yuqori qiymatli raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan mineral xamoshyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish, shuningdek Buxoro viloyatining ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o'rinlarini yaratish, hamda aholining daromadini oshirish maqsadida viloyatning G'ijdivon tumanida "Gijdivon" EIZsi tashkil etildi. Ushbu EIZning asosiy faoliyat yo'nalishlari tashqi bozorda talab katta bo'lgan va importning o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishni

tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investorlarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishdan iboratdir.

Shunigdek davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yil 11-yanvardagi PQ-3 qaroriga asosan "G'ijdivon" EIZning yer maydonini kengaytirish yo'lga qo'yildi va hudud ancha kengaydi.

EIZ maydoni 883,00 ga shundan 213,5 gektar G'ijdivon tumanida, 200 gektar Kogon tumanida, 100 gektar Qorovulbozor tumanida va 100 gektar Peshku tumanida, 200 gektar Romitan tumanida, 69,5 gektar esa Buxoro tumanida joylashgan zarur muhandislik kommunikatsiyalari mavjud[7].

"G'ijdivon" EIZda maxsus bojxona zonasi rejimi mavjud, unga jalb qilingan investorlar soni – 36, loyihalar - 46 ta, ularning umumiy qiymati - 203,3 million dollar, tashkil qilingan ish o'rinlari - 5313 kishi. 2021 yilda ishlab chiqarish hajmi - 496,3 mlrd. so'm, shu jumladan eksport 26,8 mln.dollar. Eksport bozori: Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Koreya, Germaniya, Hindiston, Belarusiya, Ukraina kabi mamlakatlar bor.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 10 iyuldagi qaroriga muvofiq Buxoro viloyatida "Buxoro-Agro" EIZsi tashkil etildi. "Buxoro-Agro" EIZsi viloyatning Buxoro, Jondor, Kogon, Peshku va Romitan tumanlarida qishloq xo'jaligi salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ularda gidroponik issiqxonalar barpo etish orqali eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromadlarini oshirish mo'ljallangan. Gidroponik tizimli issiqxona – bu asosiy shaffof qoplama materiali sifatida shisha qilingan issiqxonadir. Ushbu "Buxoro-Agro" EIZsida gidroponika issiqxonalarida gidroponik usulida suvdan va boshqa eritmalardan foydalanib o'simliklar yetishtiriladi. Unga ko'ra, Buxoro tumanida 500 gektar, Jondor tumanida 100 gektar, Kogon tumanida 900 gektar, Peshku tumanida 400 gektar, Romitan tumanida 1100 gektar, jami 3000 gektar yer ajratiladi[8].

Shundan 598 gektar yerda 98 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan, xususan, Turkiya investitsiyasi ishtirokida "Buxoro Varnet" korxonasi tomonidan

115 gektar maydonga oynavand issiqxona qurish rejalashtirilgan. Bu turdagi oynavand issiqxonalar tabiiy yorug'likni ko'proq qabul qiladi, chunki shisha yoki boshqa materiallar yo'rug'likni yaxshi o'tkazadi, bu esa o'simliklarning yaxshi o'sib rivojlanishiga va ularning samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Ushbu iqtisodiy rayonning iqtisodiy rivojlanishida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarning ahamiyati kattadir. Yuqorida ko'zda tutilgan "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi, "Buxoro-Agro" erkin iqtisodiy zonasi hamda "G'ijdivon" erkin iqtisodiy zonasi mamlakatimiz bozorlarini o'z mahsulotlari bilan ta'minlamoqda balki, xorijiy mamlakatlarga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilib o'zining ishlab chiqarish salohiyati ko'rsatmoqda. Albatta hozirgi kunda bunday erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib yutuqlarga erishilayotganligi davlatimiz tomonidan bularga katta imkoniyatlar yaratilgani desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa "Gijdivon" EIZ si o'zining qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha o'zining shu sohada samadorligini oshirib hamda yangi texnologiyali issiqxonalar tashkil qilib davlatimizni oziq-ovqat muommolarining ham oldini olmoqda. Iqtisodiy rayonda boshqa tashkil etilgan EIZ lar ham o'ziga hos mavqeiga egadir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Amanov A. K. et al. Economic and geographical features of the formation of navoi free economic zone //Thematics Journal of Geography. – 2021. – T. 6. – №.
2. Amanov A. K. THE ROLE OF SPECIAL ECONOMIC ZONES IN THE ECONOMY: FOREIGN EXPERIENCE AND UZBEKISTAN //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 30-34.
3. Amanov A. K., Atayev N. P., Bozorova N. O. Mechanism Of Formation and Future of Development of Free Economic Zones in Agriculture of Uzbekistan //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2021. – T. 3. – С. 313-317.
4. M. Mamajanov Ozbekiston iqtisodiy va ijtimoy geografiyasi darslik. Toshkent-2019

5. <https://ufez.uz/uz/invest-map/>
6. <https://kun.uz/news/2023/02/21/urgut-eiz/> Urgut EIZ boshqa hududlarga ham tarmoqlanyapti - bu imtiyoz olish yo‘limi?
7. <https://sezgijduvan.uz/uz/index#customs>
8. <https://daryo.uz/2018/07/13/buxoro-agro-erkin-iqtisodiy-zonasiga-3-ming-gektar-yer-ajratiladi>.